

«Ovoz 15» tarif rejası!

Narxlash

Abonent to‘lovi, oyiga	15 000 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi daqiqalar limiti, oyiga	1 500
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMSlar limiti, oyiga	1 500
Internet-trafik limiti, oyiga	500 MB
Yo‘nalishlar bo‘yicha narxlash:	
O‘zbekiston bo‘yicha qo‘ng‘iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so‘m
1 MB internet narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMS narxi	50 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha MMS narxi	50 so‘m
Xalqaro SMS narxi	1 000 so‘m
Xalqaro MMS narxi	1263 so‘m

Limitlar qoldig‘ini tekshirish: *100# - daqiqalar, SMS va internet-trafik MBlari.

Tarifga o‘tish: *120#

«Ovoz 15» tarif rejasidan «Sof» tariflar tizimiga va «Internet 60» tarif rejasiga o‘tish narxi - **0 so‘m**.

«Ovoz 15» tarif rejasiga «Sof» tariflar tizimidan, «Internet 60» tarif rejasidan o‘tish narxi - **2105 so‘m**.

Tarif rejası almashtirish holatida, abonent hisobida tarif rejasining abonent to‘lovi qiymatiga teng (yoki undan ko‘p) + 3 000 so‘m mablag‘ bo‘lishi kerak

Eslatma

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlarini

sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etiladigan intenet-to‘plamdan sarflanadi.

Tarif rejasining shartlari

- 1.** Tarif rejasiga yangi ulanishlar hamda Prepaid tizimi abonentlari o‘tishlari uchun ochiq.
- 2.** Oylik abonent to‘lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:
 - Abonentning tarif rejasiga ulanish/o‘tish sanasi oylik davrda oylik abonent to‘lovining yechilish sanasi hisoblanadi.
 - Tarif rejasiga yangi ulanishda/o‘tishda, agar abonent hisobida yetaricha mablag‘ bo‘lsa, oylik abonent to‘lovi va limitlar to‘liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.
 - Hisob manfiy holatda bo‘lsa yoki unda tarif bo‘yicha oylik abonent to‘lovining yechilishi uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, u holda abonent to‘lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.
 - Oylik abonent to‘lovi tarif rejasiga bo‘yicha oylik abonent to‘lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to‘lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasiga bo‘yicha abonent to‘lovining so‘nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.
 - Tarif rejasiga doirasida navbatdagi oylik abonent to‘lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo‘lgan davrda (yechilish vaqt qat’iy belgilanmagan) amalgaga oshadi. Oylik abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag‘ bo‘lishi kerak.
 - Agar oylik abonent to‘lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to‘lovi qiymatidan kam mablag‘ qolgan bo‘lsa, u holda abonent raqami blokланади. Toki hisobda abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag‘ bo‘lmaganicha abonent to‘lovi yechilmaydi.
 - Abonent hisobi abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to‘ldirilishi bilan oylik abonent to‘lovi **darhol** yechiladi. Abonent to‘lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o‘tadi va tarif rejasiga shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to‘lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya’ni, tarif rejasiga bo‘yicha navbatdagi oylik abonent to‘lovining yechilishi tarif rejasiga bo‘yicha oylik abonent to‘lovi **so‘nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab** bir oylik oraliqda amalgaga oshadi.
- 3.** Tarif rejasiga doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo‘yicha oylik abonent to‘lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasiga doirasida taqdim etilgan oylik limitlarning amal qilish muddati belgilangan vaqtidan boshlab 1 oyni tashkil etadi:
 - Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to‘ldirishni va tarif rejasiga bo‘yicha limitlar belgilanganligini *100# USSD-so‘rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.
 - Bloklangan holatda abonent oylik internet-to‘plamlar shartlariga ko‘ra limitlar qoldig‘idan (agar qoldiq qolgan bo‘lsa) toki ularning amal qilish muddati tugaganicha foydalana oladi.
 - Tarif rejasiga doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo‘ng‘iroqlar va SMSlar tarif rejasiga shartlariga ko‘ra yo‘nalishlar bo‘yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.
 - Tarif rejasiga va qo‘srimcha internet-to‘plamlar doirasidagi oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkonini to‘xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolalik SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo‘ladi:
 - Tarif bo‘yicha limitlarni yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);
 - Internet-to‘plam xarid qilish;
 - 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo‘yicha mobil internetni faollashtirish*

* Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo‘yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to‘plam xarid qilsa, u holda qo‘srimcha to‘plam limitlari tugaganidan so‘ng

toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasiga shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor qiling:

- «Ovoz 15» tarif rejasidan «Sof» tariflar tizimiga va «Internet 60» tarif rejasiga o'tishda, oldingi tarif rejasiga muvofiq belgilangan limitlar yangilariga qo'shiladi va toki sarflab tugatilguniga qadar yoki ularning oldingi tarif rejasiga ko'ra amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.

- Boshqa tarif rejalaridan "Sof" tariflar tizimiga, "Start 10", "Ovoz 15" va "Internet 60" tarif rejalariga o'tilsa oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

4. «Ovoz 15» tarif rejasি abonentlari uchun «Qadronlar!» sodiqlik dasturi amal qiladi.
5. Tarif rejalarining limitlari doirasida taqdim etilgan daqiqalar axborot-ko'ngilochar xizmatlarga hamda xalqaro yo'naliшhlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.
6. Tarif rejalar doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagи abonentlar uchun amal qilmaydi.
7. «Ovoz 15» tarif rejasи abonentlari uchun «Sizga qo'ng'iroq qilishdi», «Qulay daqiqalar», «Raqamni saqlab qolish», Oylik internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Internet-sovg'a» xizmatlari, «Al Chiroq» aksiyasi amal qiladi.
8. «Ovoz 15» tarif rejasи abonentlari uchun Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, Kunlik SMS-to'plamlar, «Tarmoq ichida qulay» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari amal qilmaydi.
9. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi va 4G tarmog'inining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

«Restart» xizmati shartlari

1. «Restart» xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.
2. «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.
3. «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasи shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.
4. «Restart» xizmatini faollashtiriganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lov yechiladi va abonentning tarif rejasи oylik abonent to'lovni doirasida to'liq oylik limitlar belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovni abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.
5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtiriganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovni yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.
6. «Restart» xizmati muvaffaqiyatli faollashganida, tarif rejasи doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha daqiqalar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi.
7. Tarif rejasи bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
8. «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.